


# Mustaqil ish.

Toshkent Pediatriya tibbiyot  
instituti

103-guruh 1-ped.

- Lotin, o`zbek, rus tillari kafedrasi
- Bajardi: Bahriyev B.
- Tekshirdi: Hamroqulova M.





Ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980 - 1037) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Uning asl ismi Husayn ibn Abdulloh. Besh o'n yoshlarida maktabda ta'lim oldi. Maktabni bitirgach, ustozlari Abu Abdulloh an-Natiliy dan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rgandi. U asosan tabobat ilmiga qiziqardi. O'sha vaqtda uni Husayn deb atagan bo'lsalar, sharqda Sheyxulrais, g'arbda Avitsenna, arablar esa Abu ali Alhusayn ibn Abdullo ibn Hasan ibn Sino deb atar yedilar.

Ibn Sino avval Qur'on, bu darslarni to'la o'zlashtirib oladi. Ayni vaqtda u mantiq, hisob, aljabr, handasa va falakiyot bilan ham shug'ullanadi. Shu bilan birga Ibn Sino tabiiy fanlarni, xususan sevib o'rganadi. U o'zining tug'ma iste'dodi va favqulotda mehtil va adabiyot darslarini o'qiydi va o'n yoshga yetar –yetmas natsevarligi tufayli darslarini osonlik bilan o'zlashtirar va hatto muallimlariga noma'lum bo'lgan narsalarni ham kitobdan mustaqil o'qib o'rganardi.

# ABU ALI IBN SINONING HAYOTI VA IJODI TIB QONUNLARI ASARI


## Reja:

1. Abu Ali Ibn Sino - tabobat ilmining sultoni
2. Abu Ali i Ibn Sinoning hayoti va ijodi
3. Abu Ali Ibn Sinoning tibbiy fikrlari
4. Tib qonunlari



Hech bir sir  
qolmadi, mavhum bo`lmagan,  
Hech bir gap qolmadi,  
ma`lum bo`lmagan.  
Bilimim haqida chuqur  
o`ylasam,  
Aslida hech narsa ma`lum  
bo`lmagan.

(Abu Ali Ibn Sino)



Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning hammasi bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan va ularga oid asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo'lsa ham, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan va bizgacha 242 tasi yetib kelgan. Shundan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tabiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyozotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan.

Olimning bizgacha yetib kelgan umumiy falsafaga oid eng yirik asari va muhim asari "Kitob ash-shifo" deb atalgan. Uni o'z davrining ilmiy qomusi desa bo'ladi. U 4 qismdan iborat: 1) Mantiq; 2) tabiiy fanlar; 3) riyoziyot; 4) ilohiyot. Bu asarni arabcha matni qisman bir necha marta nashr etilgan bo'lsa ham, u biror tilga hali to'la ravishda tarjima etilmagan, faqat ayrim bo'limlarinigaturli g'arb va sharq tillarida chop etilgan.

Falsafaga oid ikkinchi asari "Kitob an-najot" ("Najot kitobi") bo'lib, unda "Kitob ash-shifo"ning mazmuni qisqartirilib bayon etilgan.


Ibn Sinoning eng so'ngi yirik falsafiy asari "Al-ishorat va-t-tanbihot" ("Ishoralar va tanbehlar") bo'lib, unda olim falsafaning asosiy masalalarini qisqa iboralarda bayon etgan. Ibn Sinoning eng so'ngi yirik falsafiy asarlaridan eng muhimi "Donishnoma" ("Bilim kitobi") hisoblanadi

Ibn Sino o'n yeti yoshidayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida dong chiqardi. O'sha kezlarda Somoniylar davlatining boshlig'i Nuh ibn Mansur kasal bo'lib, saroy tabiblari uni davolashda ojiz edilar. Buxoroga yangi chiqqan yosh tabibning ovozi saroga ham yetib borogan edi, uni amirni davolashga taklif qiladilar va uning nazoratida davolangan bemor tez fursatda oyoqqa turadi. Buning evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu kutubxona o'sha vaqtda butun O'rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o'z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytiradiki, u davrda shu qadar bilimga ega bo'lgan boshqa bir kishini topish mushkul edi. Ibn Sino o'z davridagi olimlar, jumladan, Abu Rayhon Beruniy bilan bo'lgan ilmiy munozaralari taxminan shu yillardan boshlanadi.

Fanlarni ma'lum bir tartibda turkumlarga ajratish, ya'ni ularni tasniflash tabiatshunoslikning muhim va asosiy masalalaridan biri, uni hal qilish uchun ma'lum bir falsafiy nuqtai nazardan yondoshish talab etiladi. Shuning uchun ham bu masala bilan doimo o'z davrining buyuk mutafakkirlari bosh qotirib kelganlar. Ibn Sino ham bu muhim masala bilan shug'ullanib, ma'lum qoidalarga asoslangan o'ziga xos tasnif tuzgan. Ibn Sinoning falsafiy ta'limotlari faqat Sharqdagina emas, balki G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham keng yoyildi va Uyg'onish davrida ilmiy dunyoqarashning vujudga kelishida katta ahamiyat kasb etdi. Ibn Sinoning tabobat fani sohasidagi xizmatlari ayniqsa buyukdir U o'z asarlarida eng qadimdagi fanlardan biri bo'lgan tibbiyotning o'zidan oldingi ming yillik taraqqiyotiga yakun yasabgina qolmay, uni yangi yuqori bosqichga ko'tardi, hatto bu fanning keyingi asrlarda erishgan bir qancha yutuqlarini oldindan ko'ra bildi.



Ibn Sino tibbiyot, uning mohiyati va vazifalari haqida so'zlab, avvalo tibbiyotning o'zi qanday fan degan masalaga to'xtaladi. U tibbiyotga bunday ta'rif bergan. "Tibbiyot shunday bir ilmki, u bilan inson gavdasi-ning ahvoli sog'lik va kasallik jihatidan o'rganiib, uning mavjud sog'lig'i saqlanadi va yo'qotilgani tiklanadi". Ibn Sinoning bu ta'rifida juda muhim bir fikr bor. U salomatlikni saqlash masalasini birinchi o'ringa qo'ygan. Demak, Ibn Sinoning tushunishicha, tibbiyotning asosiy vazifasi kishilar sog'lig'ini saqlashdan iborat. Bu fikr yuksak darajada rivojlangan hozirgi zamon tibbiyotining asosiy qoidasiga butunlay mos keladi. Ibn Sino o'zining bu fikri bilan o'sha zamondagi ko'pchilik tibbiyot namoyandalarining fikrlaridan ming yil ilgari ketgan edi.





Ibn Sinoning fikricha inson tanasidagi jarayonlar (o'sish, rivojlanish, ovqat hazm qilish, muskullar harakati, fikrlash va h.k.)ni boshqaruvchi quvatlar (ya'ni kuchlar) mavjud. Aslida bu tushunchaga mashhur Rim hakimi Klavdiy Galen asos solgan edi. Galen har bir a'zoning o'z boshqaruvchi quvati bo'ladi, deb hisoblagan. Ibn Sino quvatlar haqidagi mulohazalarida shu fikrni asos qilib olgan bo'lsa kerak. Ibn Sino quvatlarni uch turga bo'lgan. Bular nafsoniy, tabiiy va hayotiy quvatlar. Bu quvvatlarning har biri o'ziga xos funksiyani bajaradi. Har bir quwatdan ma'lum bir harakat, (faoliyat) paydo bo'ladi. Nafsoniy quwatning manbai miyadir. Nafsoniy quwat, idrok etish va fahm qilish jarayonlarini bajaradi. Ibn Sino bosh va periferik asab tizimining funksiyasini to'g'ri ko'rsatib bergan. Lekin, bu faoliyatning reflektor usulda amalga oshishini bilmay, uni mavhum quwat (kuch) bilan bog'lagan. Ibn Sinoning yozishicha, tabiiy quwat inson shaxsini saqlaydi, va uning o'sishini boshqaradi. Bunda u ko'payish (urchish) ishini ham yo'lga solib turadi. Umuman tabiiy quwat inson navini saqlaydi. Shuning uchun tabiiy quwatning navni saqlash qismi moyakda joylashgan.

Ibn Sino tibbiyotning vazifasi salomatlikni saqlashdan iborat, degan fikrni boshqa asarlarida ham ko'p marta ta'kidlagan. Masalan, nazm bilan yozilgan "Urjuza fi-t-tib" ("Tibbiy urjuza") nomli kitobida bu fikrni qisqa va icham qilib, "Tibbiyot — sog'liqni saqlash va kasallikni tuzatishdan iborat (fan)", deb yozgan.

"Urjuza fi-t-tib" mazmun va hajm jihatidan "Tib qonunlari"dan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi katta she'riy asardir.

Ibn Sino tib ilmini nazariy va amaliy qismlarga bo'lgan. Uning yozishicha, nazariy qism tibning asosiy qoidalarini o'rganadi. Xususan, u kasalliklarning turlari va sabablarini aniqlaydi. Amaliy qism esa tadbir va amalning qanday bo'lishini ko'rsatadi. Bu yerda Ibn Sino ikki muhim masalani ko'zda tutgan. Ulardan biri sog'lom tananing tadbirini bilish, ya'ni tana sog'lig'ini saqlash, buni olim sog'liqni saqlash ilmi deb atagan. Ikkinchi masala kasal tananing tadbirini bilish, ya'ni kasallikni muolaja qilib, uni sog'lom holatga qaytarish. Buni Ibn Sino davolash ilmi deb atagan.

Ibn Sino nazariy-tibbiy bilimlar doirasiga unsurlar, mizojlar, xiltlar, quvatlar, a'zolar va ularning funksiyalari haqidagi tushunchalarni kiritgan. Olimning ta'kidlashicha bu tushunchalarning har biri o'ziga xos mohiyatga ega.

Murakkab a'zolarga Ibn Sino bunday ta'rif bergan: "Murakkab a'zolar shunday a'zolarki, ulardan qaysi bo'lagini olmang, u na ismda, na tarifda butun a'zo bilan bir xil bo'lmaydi, ya'ni murakkab a'zoning bir bo'lagi shu a'zoni to'la ifoda etmaydi". Olim bunga misol qilib, qo'l va yuzni oladi va yozadi. "Yuzning bir bo'lagi yuz emas. Shuningdek qo'lning bir bo'lagi ham qo'l emas."

Umuman olganda, Ibn Sino odam organizmi va undagi a'zolarning tuzilishini bayon etishda Galenning fikrlariga asoslangan. Lekin, o'zidan ham ba'zi bir qo'shimchilar qilgan. Masalan, Ibn Sino tomirlarning tuzilishini Galenga nisbatan aniqroq va to'liqroq ifodalab bergan. U o'rta asr olimlari orasida birinchilardan bo'lib, o'mrov suyagi faqat odamda bo'lishini ko'rsatgan. Galen bilak muskulini bir qorinli, deb hisoblagan edi. Ibn Sino bu muskul ikki qorinliligini ko'rsatib bergan.



U o'zining tug'ma iste'dodi va favqulotda mehnatsevarligi tufayli darslarini osonlik bilan o'zlashtirar va hatto muallimlariga noma'lum bo'lgan narsalarni ham kitobdan mustaqil o'qib o'rganardi. Ayniqsa tib ilmida u juda tez kamol topa boshlaydi. "Tib ilmi – deb yozadi Ibn Sino o'z tarjimai holidan, — qiyin ilmlardan emas, shu sababdan qisqa muddat ichida bu (fanga juda) ilg'orlab ketdim, endi hatto bilimdon tabiblar ham kelib huzurimda tib ilmidan saboq oladigan bo'ldilar. Bemorlarni ham davolab turardim va (shu yo'sinda) orttirgan tajribalarim natijasida muomila eshiklari menga shu qadar (keng) ochilib ketdiki, uni ta'riflab berish qiyin".

Ibn Sinoning tabobatga oid eng yirik shoh asari “Kitob al qonun fi-t-tib” (“Tib qonunlari”) kitobi hisoblanadi. O‘z davridagi tibbiyot faning mufassal qomusi hisoblangan bu asarda inson sog‘lig‘i va kasalliklariga oid bo‘lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon etilgan. “Qonun” 1012-23 yillar mobaynida yozilgan bo‘lib, uning qo‘lyozma nusxalari tezlik bilan tarqaladi. Bu asar ko‘p o‘tmay Yevropaga ham yetib keladi. XII asrdayoq Kremonalik Gerard(1114-1187) “Qonun”ni arabchadan lotin tiliga tarjima qiladi va shundan keyin Yevropa dorulfununlarida tabobat fanilbn Sino asarlari bo‘yicha o‘qitila boshlaydi. “Qonun” o‘zining asosiy qo‘llanma va darslik sifatida qiymatini 500 yildan ortiq vaqtgacha saqlanib qoldi. Birinchi bor u Uyg‘onish davridagi insonparvarlik markazlaridan biri bo‘lgan Strasburg shahrida 1473 yili bosilib chiqadi. Umuman “Qonun” 40 martadan ortiq to‘la holda nashr etilgan. Ayrim qismlarining nashri esa son-sanoqsizdir. Uning arabcha matni 1593 yiliyoq Rimda nashr etilgan edi. Keyinchalik XIX asrda bir necha bor qaytadan bosildi. “Qonun”ning ayrim qismlari ingliz, nemis va fransuz tillariga ham tarjima qilingan bo‘lsada, bu munim asar keying vaqtlargacha hozirgi zamon tillaridan birortasiga to‘la holda tarjima qilinmagan edi. Bu qiyin va ma’suliyatli ishni o‘zbek sharqshunoslari tabiblar bilan hamkorlikda amalga oshirdilar: “Qonun”ning beshala kitobi o‘zbek va rus tillarida 1954-61yillar mobaynida Toshkentda nashr etildi. 1980 yili Ibn Sino tug‘ilganiga 1000 yil to‘lishi munosabati bilan “Qonun”ning ikkinchi tuzatilgan nashri e’lon

## “TIB QONUNLARI” 5 TA KITOBDAN IBORAT

Birinchi kitobda - odam tanasi ,organlarning tuzilishi va funksiyalari, turli kasalliklarning kelib chiqish sabablari ,davolash usullari bayon etiladi.

Ikkinchi kitobda o`simlik ma`dan va hayvonlardan olinadigan dorilar va har bir dorining qaysi kasallikka davo ekanligi ni bayon etadi.

Uchinchi kitobda insonning har bir organida bo`ladigan kasalliklar,ularni aniqlash , va davolash usullariga bag`ishlangan.

To`rtinchi kitobda jarrohlik amaliyoti.

Beshinchi kitobda murakkab dorilar va ularning tayyorlash usullari

